

O'ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI
UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG
KADRLARNI QAYTA TAYORLASH VA
MALAKASINI OSHIRISH
TARMOQ MARKAZI



“TARJIMA
NAZARYASI
VA AMALIYOTI
“YO'NALISHI

O'QUV-
USLUBIY
MAJMUA

TARJIMANING
EKSTRALINGVISTIK
MASALALARI

2025

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**OLIY TA’LIM TIZIMI KADRLARINI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH TARMOQ MARKAZI**

TARJIMANING EKSTRALINGVISTIK MASALALARI

**moduli bo‘yicha
“TARJIMA NAZARYASI VA AMALIYOTI” yo‘nalishi**

O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Toshkent – 2025

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchi:

**Yo’ldoshev U. - O’zDJTU,
p.f.d., dotsent**

**Samigova X.B. – O’zDJTU
“Ingliz tili tarjima nazariyasi”
kafedrasi professori, f.f.d.**

O‘quv-uslubiy majmua O’zDJTU kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2025-yil 28-fevraldagi 4-sonli bayonnoma)

MUNDARIJA

I.	ISHCHI DASTUR	5
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI	11
III.	Nazariy materiallar	16
IV.	Amaliy mashg’ulotlar materiallari	36
V	Glossariy	50
VI.	TESTLAR	53
VII	Adabiyotlar ro’yhati	59

I. ISHCHI DASTUR



KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2022- 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” milliy kadrlarning raqobatbardoshligi va umumjahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim milliy tizimining sifati oshishiga, Bolonya jarayoni ishtirokchi mamlakatlari diplomlarini o‘zaro tan olishga, o‘qituvchi va talabalar bilan almashuv dasturlarini amalga oshirishga ko‘maklashuvchi 1999 yil 19-iyundagi Bolonya deklaratsiyasiga qo‘shilish masalasini ko‘rib chiqish belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 8 oktyabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra mamlakatdagi oliy ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash, ularning intellektual qobiliyatlarini namoyon etishi va ma’naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun zarur shart-sharoit yaratish belgilangan. Shuningdek, mamlakatimizning barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish, odamlarning dunyoqarashini o‘zgartirish, yetuk va zamon talabiga javob beradigan mutaxassis kadrlarni tayyorlashni hayotning o‘zi taqozo etmoqda. Respublikada ta’lim tizimini mustahkamlash, uni zamon talablari bilan uyg‘unlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Bunda mutaxassis kadrlarni tayyorlash, ta’lim va tarbiya berish tizimi islohatlar talablari bilan chambarchas bog‘langan bo‘lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, Davlat talablari asosida ta’lim va uning barcha tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir.

Modulning maqsadi va vazifalari

Mazkur kurs tinglovchilarga yozma tarjimaning ekstralingvistik masalalari, o‘gzaki tarjimaning ekstralingvistik masalalari hamda gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyatining ekstralingvistik masalalariga oid nazariy bilimlarni shakllantirishva o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha amalda qo‘llashga oid ko‘nikmalarni hosil qilishni nazarda tutadi.

Shuningdek, ushbu modul tarjima mutaxassislarida maxsus yozma matnlar (badiiy, texnik, yuridik, rasmiy, xuquqga oid va boshqa matnlar) tarjimasining o'ziga xos ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, online tarjima, telefon orqali tarjima, pichirlab tarjima qilish turlarining ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari, gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyatining ekstralingvistik masalalari va ularning yechimlari bo'yicha ma'lumot berish kabi vazifalarni qo'yadi.

Modul bo'yicha tinglovchilarning bilimi, ko'nikma va malakalariga qo'yiladigan talablar

“Tarjimaning ekstralingvistik masalalari” kursini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

Tinglovchi:

“Tarjimaning ekstralingvistik masalalari” fani bo'yicha tinglovchi yozma tarjimaning ekstralingvistik masalalari, o'gzaki tarjimaning ekstralingvistik masalalari hamda gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyatining ekstralingvistik masalalariga oid tayanchtushunchalarni o'zlashtirishi lozim;

maxsus yozma matnlar (badiiy, texnik, yuridik, rasmiy, xuquqga oid va boshqa matnlar) tarjimasining o'ziga xos ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, online tarjima, telefon orqali tarjima, pichirlab tarjima qilish turlarining ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari, gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyatining ekstralingvistik masalalari va ularning yechimlari bo'yicha nazariy ma'lumotlarni umumlashtirish, ularni turli muammoli vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

Modulni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar

“Tarjimaning ekstralingvistik masalalari” kursi ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik texnologiyalar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutilgan:

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompiyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress- so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, kollokvium o'tkazish va boshqa interfaol ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi.

Modulning o'quv rejadagi boshqa modullar bilan bog'liqligi va uzviyligi

“Tarjimaning ekstralingvistik masalalari” modulini amalga oshirish o'quv rejasida keltirilgan “Tarjimada ilg'or xorijiy tajribalar” modullari bilan muammolarning umumiylikiga ko'ra uzviy bog'langan.

Fan yuzasidan tayyorgarlik – ushbu fanni o'zlashtirish tinglovchidan yozma, ogzaki, gid hamrohligiga oid umumiy nazariy va amaliy bilimlarga va ko'nikmalarga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulning oliy ta'limdagi o'rni

Respublikamizning iqtisodiyoti tarjimaning rivojlanishiga va uning yutuqlariga ham bog'liq. Tarjimaning sifatli bo'lishi, ma'lumotni to'g'ri yetkazish ijtimoiy-siyosiy jabhada juda muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu modulni o'zlashtirish orqali tinglovchilar tarjimada matnlar bilan ishlashda tarjimaga tildan tashqari omillarni inobatga olish, ularni vaziyatlarda to'sqinlik qiluvchi qismiga oid chora -tadbirlarni amalda qo'llash, qiyin vaziyatlarda qaror qabul qilishga oid kasbiy kompetentlikka ega bo'ladilar.

MODUL BO'YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

(ja'mi 14 soat: 6 soat nazariy, 8 soat amaliy)

	Modul mavzulari	Auditoriya o'quv yuklamasi			
		jami	jumladan		
			Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma darslar
1.	TARJIMANING LINGVISTIK ASPEKTLARI	2	2		
2.	TARJIMANING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI	2	2		
3.	TARJIMANING PRAGMALINGVISTIK ASPEKTLARI	2	2		
4.	TARJIMANING FONETIK, SINTAKTIK TAHLILI ASOSLARI	2		2	
5.	TARJIMANING LEKSIK, STILISTIK TAHLILI ASOSLARI	2		2	
6.	TARJIMANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI ASOSLARI	2		2	
7.	TARJIMANING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI ASOSLARI	2		2	
	Jami:	14	6	8	

NAZARIY MASHG'ULOTLAR MAZMUNI

1- mavzu. TARJIMANING LINGVISTIK ASPEKTLARI

Tarjima jarayonida lisoniy g'alizliklar va ularning omillari Tarjima fonetik g'alizliklarni bartaraf etish Badiiy tarjima tahriridagi grammatik g'alizliklarni bartaraf etish Leksik-semantik g'alizliklar va badiiy tarjima tahririda ularni bartaraf etish

2- mavzu. TARJIMANING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI

Tarjiama va madaniyat masalalari Lingvokulturologiya fanining obyekti, maqsad va vazifalari Milliy-madaniy leksik birliklar va ularning tasnifi Milliy-madaniy leksik birliklarni tarjima qilish usullari

3- mavzu. TARJIMANING PRAGMALINGVISTIK ASPEKTLARI

Tarjiamaning pragmatik mazmuni va talqini Badiiy matnning pragmatik tahlil masalalari Badiiy tarjimaning pragmatik xususiyatlari

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1.mavzu. TARJIMANING FONETIK, SINTAKTIK TAHLILI ASOSLARI

Maxsus yozma matnlar (badiiy, texnik, yuridik, rasmiy, xuquqga oid va boshqa matnlar) tarjimasining o‘ziga xos ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari.

2. mavzu. TARJIMANING LEKSIK, STILISTIK TAHLILI ASOSLARI

Sinxron tarjima, ketma-ket tarjima turlarining ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari.

3. mavzu. TARJIMANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI ASOSLARI

Online tarjima, telefon orqali tarjima, pichirlab tarjima qilish turlarining ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari.

4. mavzu. TARJIMANING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI ASOSLARI

Madaniy, muzey, tarixiy, gastronomik, arxeologik, o‘rmon, qishloq xo‘jaligi kabi gid hamrohligiga oid tarjimalarning ekstralingvistik muammolari va ularning yechimlari.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- noan’anaviy o‘qitish (interaktiv, konferensiya, debat);
- davra suhbatlari (muhokama etilayotgan muammo va uning yechimi bo‘yicha mantiqiy xulosalar chiqarish);

bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli raqamlar taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI

“Tushunchalar tahlili” metodi

Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi. Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning to‘g‘ri va to‘liq izohini o‘qib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to‘g‘ri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

“Moduldagi tayanch tushunchalar taxlili”

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo’shimcha ma’lumot
Ekstralinguistika	Tildan tashqari omillarni o‘rganuvchi soha	
Og‘zaki tarjimaning ekstralinguistik	Og‘zaki tarjima jarayonida uchraydigan tildan tashqari omillar	
Yozma tarjimaning ekstralinguistik muammolari	Yozma tarjima jarayonida uchraydigan tildan tashqari omillar	
Gid hamrohligiga oid tarjimaning ekstralinguistik muammolari	Gid hamrohligiga oid tarjima jarayonida uchraydigan tildan tashqari omillar	

1 Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi

Metodning maqsadi: Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o'quvchilarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. "Xulosalash" metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

Metodni amalga oshirish tartibi:



trener-o'qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo'lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o'ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o'z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo'yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o'z taqdimotlarini o'tkazadilar. Shundan so'ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlar bilan to'ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

Til shakllari					
Adabiy til		Badiiy til		Xalq jonli tili	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi
Xulosa:					

«FSMU» metodi

Texnologiyaning maqsadi: Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali axborotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda seminar mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

Texnologiyani amalga oshirish tartibi:

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

Ф	• фикрингизни баён этинг
С	• фикрингизни баёнига сабаб кўрсатинг
М	• кўрсатган сабабингизни исботлаб мисол келтиринг
У	• фикрингизни умумлаштиринг

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiiy tartibda taqdimot qilinadi. FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

Fikr: Tarjimon xalqlar o'rtasida vositachi

Topshiriq: Mazkur fikrga nisbatan munosabatingizni FSMU orqali tahlil qiling.

Venn Diagrammasi metodi

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u uchta o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini turli aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

II. NAZARIY MATERIALLAR

1-MA'RUZA
TARJIMANING LINGVISTIK ASPEKTLARI
REJA:

- 1. Tarjima jarayonida lisoniy g'alizliklar va ularning omillari**
- 2. Tarjima fonetik ga'lizliklarni bartaraf etish**
- 3. Badiiy tarjima tahriridagi grammatik ga'lizliklarni bartaraf etish**
- 4. Leksik-semantik g'alizliklar va badiiy tarjima tahririda ularni bartaraf etish**

Tayanch so'z va iboralar: *Tarjimada lisoniy ga'lizliklar tushunchasi va badiiy tarjimada yuzaga keladigan lisoniy g'alizliklarni aniqlash, fonetik, grammatik, leksik, stilistik g'alizliklar, asliyat matni, tarjima matni.*

Tarjima jarayonida lisoniy g'alizliklar va ularning omillari. O'zbek tilidan ingliz tiliga yoki ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimada yuzaga keladigan lisoniy g'alizliklar bu ikki tillarning genetik va morfologik tasnifga ko'ra ikki til oilasiga mansubligi sababli yuzaga chiqadi. Genetik jihatdan o'zbek tili Oltoy tillar oilasining turkey tillar guruhiga. Ingliz tili esa Hind-evropa tillar oilasining german tillar guruhiga mansub. Morfologik tasnifga ko'ra esa, ingliz tili flektiv tillar oilasiga o'zbek tili esa agglyutativ tillar guruhiga kiradi. Bu ikki tilning mazkur jihatlarga ko'ra farqli jihatlari tarjima jarayonida fonetik, morfologik, sintaktik, leksik, stilistik va matniy muammolarni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Tarjimada fonetik g'alizliklarni bartaraf etish masalalari. Ingliz tilidagi unli tovushlarni o'zbek tilida transkripsiya va transliteratsiya qilish aksariyat hollarda muammo yaratmaydi. Ingliz tilidagi monoftonglar o'zbek tili uchun xos bo'lgan monoftonglar yordamida transkripsiya va transliteratsiya qilinadi. Diftonglarga kelsak, ularni ham o'qilishi faqat ingliz tili fonetik xususiyatlariga bog'liq. Ingliz tilida unli harflar birikmasi ham turli holatda turlicha o'qilish xususiyatiga ega. Asosiy muammo bu yerda ingliz tilidagi undosh tovushlar va undosh tovush birikmalariga taalluqlidir. Ingliz tilining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bir unli harfning bir necha xil (urg'uli, urg'usiz, ochiq yoki yopiq bo'g'inda) o'qilishi hisoblanadi. Undosh harf va harf birikmalarining

ham kamida ikki xil o'qilishi mumkin. Ingliz unli tovushlari, unli tovush birliklari, undosh tovushlar va undosh tovushlar birliklarining o'qilishi tarjima jarayonida qo'llanadigan transkripsiyada hisobga olinishi lozim. Ingliz tili undosh tovushlari va tovush birliklarini o'zbek tiliga transliteratsiya qilish muayyan qiyinchiliklar tug'diradi. Bu holatda fonetik transformatsiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Fonetik transformatsiyalar xisoblangan transkripsiya va transliteratsiya atoqli otlar (ismlar), geografik nomlar, tashkilot, idora, muassasa nomlari hamda kema, mehmonxona nomlarini transkripsiya qilish yoki transliteratsiya qilish, ya'ni yuqorida tilga olingan nomlardagi tovushlarni tarjima tilida mos tovush yoki harflar bilan berishni nazarda tutadi.

Tarjimada grammatik ga'lizliklarni va ularni bartaraf etish usullari. Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjima transformatsiyalariga ehtiyoj aksariyat hollarda o'zbek tiliga xos bo'lgan dunyoni his etish va shu bilan bog'liq tilning tanlash qobiliyati yoki xususiyati bilan bevosita aloqadordir. Tarjima jarayonida nafaqat ikki til aloqada, balki ikki madaniyat bir-biri bilan to'qnashadi. Har bir tilning o'ziga xos xususiyati ikkita til aloqada bo'lganda namoyon bo'ladi. Ayni bir fikr ikki tilda ikki xil ifodalanadi. Ingliz tilida fe'l o'zbek tiliga nisbatan ko'proq qo'llanish xususiyatiga ega. Ingliz tilida atoqli otdan ko'ra kishilik olmoshi, o'zbek tilida atoqli ot va nisbatan kamroq kishilik olmoshlari qo'llanishi mumkin. Ingliz tilida fikrlarni ixchamroq ifodalashga intilish, o'zbek tilida fikrlar ko'proq sifatlarni qo'llab, tasviriy so'zlarni ishlatishga intilish seziladi. Ingliz tilida shaxsi noma'lum gaplar o'zbek tiliga nisbatan ancha ko'proq qo'llanadi. Grammatik transformatsiyalarni qo'llashga tegishli barcha sabablar uning ikkita muhim, ya'ni obyektiv va subyektiv jihatlariga qaratilganini ko'rish mumkin. Obyektiv sabablarga ko'ra ikki tilning madaniy farqlari bilan bog'langan leksik, grammatik, stilistik, pragmatik va shu kabi boshqa tarjima transformatsiyalarga ehtiyoj seziladi. Subyektiv sabablarga vaqtning yetishmasligi, tarjimonning individual uslubi, tarjimonning asliyat yoki tarjima tilining vakili bo'lishi, tarjimonning dunyoqarashining kengligi, asliyat matnida tasvirlanayotgan mavzuni bilish yoki bilmasligi va shu kabi bir qator xususiyatlar kiradi.

Ta'kidlash lozimki, bunda ikkita asosiy grammatik almashtirish turi mavjud: grammatik transformatsiya yordamida yasalgan turg'un tillararo muqobillar hamda

tarjima jarayonida kontekst asosida yaratilgan kontekstual muqobillar. Mazkur almashtirish yoki o'zgartirishlar ikki, ya'ni asliyat va tarjima tillaridagi strukturadagi farqlar sababli yuz beradi:

1. Til birliklarining til sistemasidagi (gap bo'laklari) tutgan o'rni.

2. Til ichidagi omillar.

3. Grammatik kategoriyalar:

- son kategoriyasi

- jins kategoriyasi

- aniqlik/noaniqlik kategoriyasi

- sifat darajalari kategoriyasi

- tur va zamon kategoriyasi

- nisbat kategoriyasi

4. Ingliz va o'zbek tillarining sintaksisidagi farqlar.

J.A.Golikova grammatik transformatsiyalar quyidagi opreatsiyalardan tashkil topishini ta'kidlagan:

1) gap strukturasi o'zgartirish;

2) so'z tartibini o'zgartirish;

3) so'z turkumini yoki gap bo'laklarini o'zgartirish;

4) so'z qo'shish;

5) grammatik sabablarga ko'ra so'zlarni tushirib qoldirish.

Yuqorida keltirilgan barcha o'zgarishlar bir maqsadga, ya'ni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda adekvatlikka yoki muqobillikka erishishni nazarda tutadi. Odatda tarjima jarayonida grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etishda transpozitsiya, qismlarga ajratish, kengaytirish, kalkalash, kompressiya, so'z tushirib qoldirish, inversiya, antonimik tarjima, so'z qo'shish kabi tarjima usullari faol qo'llanadi.

Leksik-semantik g'alizliklar va badiiy tarjima tahririda ularni bartaraf etish.

Tarjimada adekvatlikka erishishning bir nechta yo'llari mavjud. Bu yo'llar tarjimaning turli metod va usullarini o'z ichiga oladi. Tarjima birligi masalasi tarjima nazariyasining muhim va eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi.

O'z vaqtida L.S.Barxudarov til birliklarining barchasi tarjima birligi bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surgan (Barxudarov 1969; 1973), ya'ni fonema, morfema,

soʻz, soʻz birligi va gap tarjima birligi sifatida qoʻllanishi mumkin.

Transformatsiya tarjimadagi oʻzgartirishlarning alohida turi sifatida qaraladi.

Odatda leksik transformatsiyalarni yetti guruhga ajratgan. Ular oʻz ichiga quyidagilarni olgan:

- 1) maʼnolarni farqlash;
- 2) maʼnolarni aniqlashtirish (maʼnolarga aniqlik kiritish);
- 3) maʼnolarni umumlashtirish;
- 4) maʼnolarni rivojlantirish;
- 5) antonimik tarjima;
- 6) maʼnoni bir butun qilib oʻzgartirish (tselostnoe preobrazovanie);
- 7) tarjima jarayonida yoʻqolgan maʼno unsurlarini kompensatsiya qilish (oʻrnini qoplash – izoh bizniki).

Yuqorida baʼzi tarjimon olimlarining tarjima transformatsiyalarini tasnifi munosabati bilan konkretlashtirish, umumlashtirish, antonimik tarjima, kompensatsiya va shu kabilar haqida fikr yuritganimiz uchun bu yerda ularga toʻxtalib oʻtirmaymiz va eʼtiborni hali tilga olmagan tarjima transformatsiyalari haqida batafsil maʼlumot berishga harakat qilamiz.

Maʼnolarni rivojlantirish tarjima jarayonida soʻzning lugʻaviy maʼnosini unga mantiqan bogʻliq kontekstual maʼnosiga almashtirishni nazarda tutadi. Bunga koʻchma maʼnoda qoʻllanadigan leksik stilistik usullardan metafora va metonimiyalar misol boʻla oladi. Maʼnoni bir butun qilib oʻzgartirish maʼnoni rivojlantirishning muayyan bir turi hisoblanadi. Bunda soʻzdan tortib to gapgacha boʻlgan til birliklarining ichki shakllarida oʻzgartirish jarayoni kechadi. Bunda oʻzgarishlar elementlarga emas, balki gap yoki matnning bir butuniga daxldor boʻladi. Har bir muayyan uslubda qoʻllanishi mumkin. Maʼnoni bir butun oʻzgartirish publitsistik material tarjimasida leksik transformatsiyalardan foydalanish juda keng tarqalgan.

Asliyat matnida maʼnoga taalluqli, biroq tarjimada aks etmaydigan yoʻqotishni qoplash kompensatsiya hisoblanadi. Tarjima jarayonida leksik muammolarni bartaraf etish uchun ekvivalentlik va uning turlari, soʻz oʻzlashtirish, umulashtirish, tavsillash, eslatmalar, usullar uygʻunligi qoʻllanadi.

Badiiy tarjimada stilistik gʻalizliklarni bartaraf etish. Badiiy matn tarjimasining

o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu –tarjimon tomomnidan badiiy uslub va uning o'ziga jihatlari jiddiy e'tibor qaratilish lozimligidir. Badiiy matnning uslubi haqida so'z yuritganimizda stilistika va uning til sathlarida namoyon bo'lish jarayonlariga e'tibor qaratishimiz lozim. Odatda tarjimon badiiy matn uslubida fonetika, leksika, frazeologiya, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksisning stilistik imkoniyatlarini e'tiborga olishi lozim. Shunga ko'ra tarjima jarayonida asliyat va tarjima matnlarining fonostilistikasi, leksik stilistikasi, grammatika (morfologiya va sintaksis) stilistikasi, so'z yasalishi stilistikasi hamda stilistik frazeologiyaga aks etish masalasiga urg'u beradi.

Fonostilistika yoki tovush stilistikasi nutq tovushlari va prosodik vositalarni ekspresivligi va uslubiy salohiyati nuqtai nazaridan o'rganadi. Fonostilistikaning asosiy yo'nalishiga tovush variantlari, fonetik uslublar, tovush simvolizmi, fonetik uslubiy vositalar, evfoniya, ritm, qofiya va prosodik belgilarning (intonatsiya, urg'u, pauza, ohang va boshqalar) ekspresiv va emotsional xususiyatlari kiradi.

Leksik stilistika badiiy matn va uning tarjimasi tadqiqida alohida o'rin tutadi. Leksik stilistika lug'at tarkibini uslubiy farqlash muammosi, uslubiy ma'nolar tushunchasi va ularning tipologiyasi bilan shug'ullanadi. Tadqiqot ishimizning ob'ekti sifatida tanlangan asar asl ingliz tilida yozilganligi bois, biz ingliz tili lug'at tarkibi stilistikasiga ko'proq yondashamiz. Leksik stilistika deganda biz tadqiqning ikki jihatiga e'tibor qaratamiz. Birinchisi tilning leksik qatlamini tashkil qiluvchi so'zlar va ularning turlari. Ikkinchi jihatda badiiy matnda qo'llanadigan leksik-stilistik vositalar. Ingliz lug'at tarkibi uslub nuqtai nazaridan uchta guruhga bo'lish mumkin: neytral, so'zlashuv, badiiy. So'zlashuv va adabiy qatlamlar quyidagi kichik guruhlarga bo'linadi. Badiiy qatlam oddiy badiiy so'zlar, atamalar va maxsus so'zlar, she'riy so'zlar, arxaik so'zlar, barbarizm va begona so'zlar, badiiy neologizmlardan iborat. So'zlashuv qatlamiga esa shevaga xos so'zlar, jargonizmlar, kasbga oid so'zlar, dialekt so'zlar, qo'pol so'zlar, og'zaki neologizmlar kiradi.

Badiiy matnning boshqa uslubdagi matnlardan yorqin ajratib turadigan yana bir jihat bu unda stilistik vositalarning qo'llanishidir. I.R.Galperin stilistik vositalarni quyidagi tasnifini keltirib o'tadi:

- bosh lug'aviy va kontekstual ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: metafora, metonimiya, kinoya;

- bosh lug'aviy va yasama mantiqiy ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: zeugma, so'z o'yini;
- mantiqiy va emotiv manolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vositalar: epitet, oksimoron, mubolag'a;
- mantiqiy va nominal ma'nolarning aloqadorligiga asoslangan stilistik vosita: antonomasiya.

So'z yasash stilistikasi affiksatsiya va so'z qo'shish vositalari yordamida hosil bo'lgan hosilalarning uslubiy potentsiali, yasama so'zlarning o'ziga xos xususiyatlariga asoslangan segmentatsiyalash, motivlashuv, sinonimik va antonimik munosabatlar, sintaktik variatsiya va stilistik usullar kabi derivatsiyaning o'ziga xos xususiyatlarning uslubiy qiymati bilan bog'liq bo'lgan muammolarni o'z ichiga oladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tarjimaning lisoniy g'alizliklari deganda nimani tushunasiz?
2. Tarjimada Grammatik g'alizliklarni qanday transformatsiyalar orqali bartaraf etish mumkin?
3. Tarjimadagi lesik-stilistik g'alizliklarni bartaraf etishda qanday tarjima transformatsiyalari qo'llanadi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

2-MA'RUZA

TARJIMANING LINGVOKULTUROLOGIK ASPEKTLARI

REJA:

- 1. Tarjima va madaniyat masalalari**
- 2. Lingvokulturologiya fanining obyekti, maqsad va vazifalari**
- 3. Milliy-madaniy leksik birliklar va ularning tasnifi**
- 4. Milliy-madaniy leksik birliklarni tarjima qilish usullari**

Tayanch soʻz va iboralar: *Tarjima, madaniyat, lison, milliy-madaniy leksik birlik, realiya, xos soʻzlar, soʻz oʻzlashtirish, madaniy ekvivalentlik, funksional ekvivalentlik, lisoniy gʻalizliklar tushunchasi va badiiy tarjimada yuzaga keladigan lisoniy gʻalizliklarni aniqlash, fonetik, grammatik, leksik, stilistik gʻalizliklar, asliyat matni, tarjima matni.*

Tarjima va madaniyat masalalari. Til sistemasi, normasi va uzus bilan bir qatorda asliyat tili va tarjima tili oʻrasidagi informatsion yoki axbort jihatlardan farqlarini belgilovchi yana bir omil mavjuddir. Bu omil ekstralingvistik bilimlar zahirasi bogʻliq. Bu omillarga birinchi navbatda oʻz ichiga etnografik, tarixiy, geografik va shu kabi madaniy-tarixga oid maʼlumotlar kiritiladi. Ular tilda oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻladi va dolzarb voqealar tilda oʻz aksini topadi. Tarjimonning mana shu narsadan bexabar boʻlishi aksariyat hollarda kommunikativ-relevant maʼlumotlarni tarjima tilida yetkazib berolmasligi oqibatida fikrning maʼno mazmunini tegishli emotsional va estetik taʼsiri adekvat darajada qabul qilinmaydi.

Tilda mavjud boʻlgan fonema, morfema, soʻz, soʻz birikmasi hamda gap lingvistik tahlilning asosini tashkil etishi lozim. Umumiy tilshunoslikning bazaviy sohalaridan stilistika, aniqrogʻi lingvostilistika, lingvopragmatika, lingvokulturologiya yoki lingvomadaniyatshunoslik, lingvistik matnshunoslik, kognitiv tilshunoslik, gender tilshunosligi va shu kabi sohalar nuqtai nazaridan matnning tahlil etilishi maqsadga muvofiq boʻladi, chunki tarjimaning mazmuni, ifodaliligi, unda milliy koloritning saqlanishi, uslubi va janrga mos kelishi va shu kabilar haqida fikr yuritishda yuqoridagi fanlarda qoʻlga kiritilgan yutuqlar tarjimaning adekvatlik va muqobillik darajasini

belgilashda qimmatli ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari tarjima birligini aniqlashda tarjima nazariyasiga o'z hissasini qo'shadi.

Tarjimaga lingvistik, lingvokulturologik, kognitiv kabi ekstralingvistik xususiyatlari nuqtai nazarlardan kompleks yondashmaslik, uning lingvistik tabiatini va mohiyatini ochmaslik, uni ilmiy jihatdan asoslanmasa uni anglash, tushunish va ulardagi hodisalarni ilmiy tushunitirib berish mumkin emas.

Lingvokulturologiya fanining obyekti, maqsad va vazifalari

Lingvokulturologiya – lingvistika va madaniyatshunoslik o'rtasida vujudga kelgan yangi mustaqil fan bo'lib, u xalqlar madaniyatining vujudga kelish tarixi va uning tilda aks etish qonuniyatlarini o'rganadi. Lingvokulturologiyaning rivojlanish davrini ikkiga bo'lish mumkin: birinchi davr – fanning vujudga kelish davri (V.Humbolt, Ya.Grimm, A.A.Potebnya, E.Sepir ishlarida o'z aksini topgan) ikkinchi davr esa lingvokulturologiyaning mustaqil fan deb tan olinish davridir (“Lingvokulturologiya” tushunchasi ilk bor V.V.Vorobyev, V.N.Teliya va V.A.Maslova ishlarida qayd etilgan).

Lingvokulturologiyaning quyidagi yo'nalishlari mavjud:

1. Ijtimoiy guruhlar, xalqlar madaniyatining lingvokulturologik kontekst (vaziyat) larini tadqiq qilish (V.Humbolt, A.A.Potebnya, E.Sepir, A.Vejbisskaya, V.N.Teliya).
2. Qiyosiy lingvokulturologiya. Bu soha bir necha ishlardagina o'z aksini topgan (S.G.Terminasova, V.N.Teliya, V.A.Maslova, D.O'.Xoshimova, G.Mahkamova, Z.Uteshova, Sh.Ubaydullayev va b.).
3. Diaxronik lingvokulturologiya davr o'tishi bilan xalqlarning lingvokulturologik holatidagi rivojlanishni o'rganadi (N.D.Arutyunova, E.Benvenist, Yu.S.Stepanov).
4. Lingvokulturologik leksikografiya – shu sohaga oid lug'atlar tuzish bilan shug'ullanadi (N.V.Chernova, D.G.Malseva, V.Muravleva, G.D.Tomaxin, X.R.Raximov va b.).

Lingvokulturologiyaning tadqiqot ob'yekti sifatida quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

- 1) muqobilsiz leksika va xos so'zlar (realiya);
- 2) mifologiya, urf-odat, an'ana, marosimlar;
- 3) metafora, tilning tasviriy va obrazli vositalari;

- 4) frazeologik birliklar;
- 5) tildagi etalon, streotip va ramziy vositalar;
- 6) nutq madaniyati, nutq odobi (V.Vorobyev, V.Maslova).

Har bir xalqning o'ziga xos hayot tarzi bilan bog'liq bo'lgan so'zlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

a) muayyan geografik hudud (davlat, shahar, qishlok, ko'cha, maydon) nomi bilan bog'liq xos so'zlar;

b) etnografiyaga doir xos so'zlar: kiyim-kechak, oziq-ovqat, urf-odat, to'y marosimlari va b. (S.Florin, S.Vlasov, I.K.Mirzayev).

Tarjimonlik yo'nalishidagi talabalar og'zaki nutqini o'stirish tili o'rganilayotgan mamlakat tili va madaniyatini bir vaqtda o'rgatishdan boshlanishni taqozo qiladi. Har qanday tarjima jarayoni ikki til – ikki madaniyatning o'zaro muloqoti bo'lib, madaniyatlararo muloqot to'g'ri, xolis talqin qilinishi bilan birga madaniyatlararo muloqotni o'rganishga katta o'rin beriladi.

Tarjimada lingvokulturologik g'alizliklarni tahrir qilish usullari. Ma'lumki, badiiy matnda milliy-madaniy o'ziga xoslikni o'zida mujassam etgan leksik birliklar qo'llanadi. Ularni tarjima tiliga olib o'tish va milly-madaniy ma'noni qayta yaratish tarjimondan o'ziga xos esktralingvist bilimni talab etadi.

Milliy-madaniy o'ziga xoslik leksikaning turli qatlamlarida ifodalanadi. Bunday leksika inson hayoti va uning barcha rang-barangliklarini aks ettiradi. B.Ismoilovning fikriga ko'ra, geografik tushunchalar, madaniy-tarixiy terminlar, realiyalar nomlari, millat turmush tarzi va madaniyatining o'ziga xosligini, qardoshlik aloqalari, inson kiyimlari va tana a'zolari nomlari, o'simlik va rang ma'nosini anglatuvchi so'zlar, ko'p ma'nolilik xususiyati, konnotativ va tasviriy ifoda ma'nolariga ega so'zlar milliy-madaniy o'ziga xoslikni anglatuvchi so'zlar xisoblanadi¹. Fikrimizcha, bu nomlar guruhiga rasm-rusumlar, an'ana va odatlar, diniy qarashlar nomlarini ham kiritish mumkin. Odatda, bunday nomlar jamiyat tomonidan qabul qilingan xisoblanadi.

¹ Исмаилова Б. Категория образности и средства ее выражения в словообразовательной системе английского и киргизского языков: Дисс. ... канд. филол. наук. – Т., 1989. – С. 70.

Soʻzlar turli tillarda oʻzlarining denotativ maʼnolariga koʻra bir biriga mos tushadi, lekin ifoda maʼnolariga koʻra farq qilishi mumkin. Soʻzlarning ifoda maʼnolaridagi farq koʻplab omillarga, jumladan, madaniy-etnografik xususiyatlar, turli mamlakat xalqlarining oʻziga xosligi, ekologik sharoitlarning har xilligi, ijtimoiy jihatdan jamiyat aʼzolarining turli qatlamlarga ajralishi kabilarga bogʻliq boʻladi.

Lingvistik adabiyotlarda “milliy-madaniy mohiyat”, “milliy oʻziga xoslik”, “milliy madaniyatning xususiyatlari”, “milliy-madaniy oʻziga xoslik”, “milliy kolorit”, “milliy-madaniy semantika, etnosemalar va ijtimoiy-madaniy maʼno”, “milliy oʻziga xos maʼno”, “milliy aloqadorlik semasi”, “hududiy-madaniy komponent yoki madaniy komponent” terminlari qoʻllanadi. Ular orasida semantikada milliy oʻziga xoslikni toʻliq ifodalay oladigan til birligi milliy-madaniy oʻziga xoslik termini hisoblanadi.

Milliy-madaniy oʻziga xoslik tushunchasi orqali semantik leksik birliklarning milliy oʻziga xos voqelik, xalqlarning ijtimoiy-tarixiy va iqtisodiy rivojlanish xususiyatlari, milliy madaniyat, anʼana va marosimlarning maʼlum bir xususiyatlari tushuniladi. Milliy-madaniy oʻziga xoslik tushunchasi quyidagilarni oʻz ichiga oladi: a) milliy-madaniy maʼnoga ega leksik qatlam, b) madaniy komponentli maʼnoga ega soʻz, v) milliy-madaniy konnotatsiyaga ega soʻz.

Milliy-madaniy maʼno termini denotativ-signifikativ maʼnoli soʻzlarni bildiradi va mutloq milliy-madaniy mohiyatni ifodalaydi. Masalan, oʻzbek tilidagi “paranji” soʻzi milliy-madaniy maʼnoli termin hisoblanadi. Bu terminlar guruhiga muqobili yoʻq soʻzlar ham kirib, bunday soʻzlarning ekvivalenti boshqa tilda mavjud boʻlmaydi. Ular realiyalar, xos soʻzlar deb ham ataladi. Bu kabi leksik birliklarni tarjima tiliga olib oʻtishda madaniy ekvivalentlik, funktsional ekvivalentlik, tasviriy ekvivalentlik, perefraz, eslatmalar kabi usullardan foydalanish va talabalarning badiiy tarjima ishlarini tahrir qilishda mana shu usullardan foydalanganlik darajasiga etibor qaratish maqsadga muvofiq.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Tarjimaning va madaniyat masalasi deganda nimani tushunasiz?
2. Lingvokulturologiyaning obyekti nimalardan iborat?
3. Tarjimada milliy-madaniy leksik birliklarning tarjima qilish usullari qaysilari?

4. Tarjimadagi lesik-stilistik g'alizliklarni bartaraf etishda qanday tarjima transformatsiyalari qo'llanadi?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G'. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo'ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
6. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
7. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.

3-MA'RUZA

TARJIMANING PRAGMALINGVISTIK ASPEKTLARI

REJA:

- 1. Tarjiamaning pragmatik mazmuni va talqini**
- 2. Badiiy matnning pragmatik tahlil masalalari**
- 3. Badiiy tarjimaning pragmatik xususiyatlari**

Tayanch soʻz va iboralar: *Tarjima, pragmatika, pragmatik mazmun, pragmatik tahlil, propozitsiya; referensiya; relevantlik; inferensiya; deysis; presuppozitsiya; implikatura.*

Tarjimaning pragmatik mazmuni va talqini. V.N. Komissarovning ta'kidlashicha, har qanday til belgisi odatda uch xil munosabatni o'zida mujassam etadi. Ular semantik, sintaktik va pragmatik munosabatlar bo'lib, birinchisi – til belgisining u anglatadigan predmet bilan aloqasini aks ettiradigan, ikkinchisi – til belgisini mazkur tizimga aloqador boshqa belgilar bilan bog'lab turadigan va uchinchisi – til belgisi bilan muloqot jarayonida undan foydalanuvchi shaxslar o'rtasidagi aloqani muayyan qiladigan munosobatlardir.² Demak, til belgisi semantik, sintaktik va pragmatik ma'nolariga ko'ra farqlanadi.

Tarjimonlar nafaqat lingvistikva madaniy belgilar tarkib topgan, balki pragmatik belgilarni ham o'zida aks ettirgan matnlar bilan ishlaydi. Aksariyat hollarda tarjima matnlarida pragmatik jihatlarga qaraganda madaniy va lingvistik jihatlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Badiiy matndagi pragmatik mazmun va xususiyatlarni hisobga olmaslik natijasida tarjima qilinayotgan matnda pragmatik muammolar yuzaga keladi.

Matnning *pragmatik mazmuni* deganda matnda aks etgan muloqot jarayonida axborot almashinuv vositalarining uyg'unligi nazarda tutiladi. Axborot almashinuvi va muloqot qilish singari vazifalar matn mazmunida uyg'unlashadi. Zotan, pragmatik

²Qarang: Q.Musayev. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. –М: «Международные отношения»,1980. - С.101.

mazmun tushunchasining umumiy chegaralari lisoniy belgilarning nutq jarayonida funksiyaga kirishuvi, shuningdek, nutq faoliyati jarayonida bildirilgan fikrlarning o‘zaro munosabatlari, nutq aktlaridagi kommunikativ vaziyat sifatida belgilanishi mumkin.³

Mazmuniy jihatdan matn denotativ va signifikativ qatlamlarga ajraladi. Matnning denotativ xususiyatlari badiiy matnda aks ettirilgan voqea va hodisalarning o‘zaro munosabatlarida namoyon bo‘ladi. S. Boymirzayevaning ta’kidlashicha, matn denotati tasvirlanayotgan voqelikdir, shuning uchun ham uning mazmuni ko‘p jihatdan bayon qilinayotgan voqealar, hodisalar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi.⁴

Badiiy matnning pragmatik tahlil masalalari. Matn mazmunnidagi signifikativ qatlami shakllanishida nutqiy tafakkur ahamiyatli hisoblanadi. Nutqiy tafakkur faoliyatining amalga oshishida qator faktorlar, xususan, muloqot maqsadi va muloqot ishtirokchilarining bilim darajasi kabilar muhim rol o‘ynaydi. Badiiy diskursda pragmatik mazmun tarkibi quyidagilarni tashkil qiladi: propozitsiya; referensiya; relevantlik; inferensiya; deysis; presuppozitsiya; implikatura kabilarni ham sanab o‘tadi.⁵

Propozitsiya va referensiya matn mazmunining denotativ qismida tarkib topadi. Axborot yetkazish xususiyatini o‘zida mujassam etgan **propozitsiya** hodisasi muloqot matnida faollashib kommunikativ belgilarni namoyon qiladi va pragmatik mazmunni hosil qiladi.

a) *Bil’aks siz: hiylakor bir tulki...*

b) *Sizni hiylakor dedim...*

d) *Bas, bu hiylalar, bu makrlar sizdan boshqa kimda topilsin?*

Ushbu nutqiy tuzilmalar “siz”, “hiylakor” va “hiyla” kabi o‘xshash propozitsiyalarga ega, ammo ushbu propozitsiya muloqot matnida faollashib har xil pragmatik mazmunni namoyish etyapti. Shuningdek, modallik va zamon-aspekt indekatorlari matn mazmunidagi kommunikativ maqsadni yanada aniqlashtiradi.

Referensiya hodisasi ham denotativ semantikaga oid hodisa bo‘lib, til birliklarining borliqdagi obyektlar bilan munosabati va bog‘liqligini bildiradi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, “lisoniy nomni voqelik bilan bog‘lashda so‘zlovchining (yoki lisondan

³Ko‘chiboyev A. Matn pragmatikasi. – Samarqand, 2015 – B.8.

⁴Boymirzayeva S. O‘zbek tilida matnning kommunikativ-pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar. Filol. fan....dok(DSc) diss.avtoref. – Toshkent, 2010. – B. 12.

⁵ Макаров М. Л. Основы теории дискурса.- М: Гнозис, 2003. – С. 119-137.

foydalanuvchi shaxsning) maqsadi lisoniy faoliyat niyati muhim o‘rin egallaydi”.⁶ Referensiya hodisasiga so‘zlovchi yoki yozuvchi nutqidagi bir tomonlama harakat deb emas, unga nutq ishtirokchilari orasida paydo bo‘luvchi umummazzmuniy harakat sifatida qarash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Masalan:

Asliyat matni: “...bizning boshimizda bo‘lg‘an *«yolg‘iz tuyuqliq» savdosi* sizning ham boshingizda bordir.”

I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov, A. Hamidov tarjimasi: “...because you have also *the only child* like we.”

Mark Riz tarjimasi: “...because the issue of *an only child* is true in your family as well.”

Relevantlik hodisasi esa kommunikativ muloqot matnining kognitiv xususiyatlarini namoyon etadi. Bu hodisa nutqiy harakat mazmunining matndan avval sodir bo‘lgan harakatlar mazmuniga mutanosibligini talab etadi. Chunki adresantga yetkazilayotgan axborot kommunikativ muloqot muhiti va matn mazmuniga mos kelsagina, u oson va yengil tushuniladi.

Asliyat matni: “Boshqa so‘zlardan ham ortiqroq esingga shuni solib o‘tayki, siyosat to‘g‘rilarida o‘ylanibroq so‘zla!”

I.Tuxtasinov, O.Mo‘minov, A. Hamidov tarjimasi: “And I think it faithful to warn you: the affairs of state expound ideas carefully and deliberately!”

Mark Riz tarjimasi: “Most importantly, there is one thing I need to remind you of: please be cautious in discussing politics.”

“Deyksis” atamasi yunon tilidan (“deixis”) olingan va “ko‘rsatish”, “ishora” kabi ma’nolarni bildiradi. U nutqiy akt ishtirokchilari, shuningdek gapning tarkibiy qismlaridan anglashiladigan denotativ mazmunning ahamiyatliligini ko‘rsatishga xizmat qiladigan tushuncha bo‘lib, u leksik va grammatik vositalarning ishora qilish vazifasini anglatadi.⁷

Ko‘rinib turibdiki, kommunikativ faoliyat va deyksis o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. U lisoniy birliklarning ishoraviylik xususiyatini namoyon qiladi. Deyksis

⁶ Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2008. – 119 b.

⁷ Лингвистический энциклопедический словарь // <http://www.textologia.ru/slovari/lingvisticheskieterminy/deyksis-v-lingvistike/?q=486&n=2200>

tilning belgilar tizimi sifatida shakllanishida muhim rol o'ynaydi, chunki u lingvistik va ekstralingvistik vositalar orqali ishoraviylik vazifasini bajaradi. Ammo deytik birliklar qo'llangan o'rinda uning ishora obyektiga aniqlik kirituvchi nutqiy vaziyat, kontekst, nutq ishtirokchilarining umumiy bilish fondi bo'lmasa, nutqdan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.⁸ Deytik birliklar nutqiy faoliyat aspektlarida, ekstralingvistik kontekst xossalarida va muloqot faoliyati xususiyatlarida aniq manbaaning bilvosita ishtirokisiz ifodalana olmaydi.

Asliyat matni: *“Fuqaroning tag'in qandog' ko'rguliklari bor ekan, o'g'lim!”*

I.Tuxtasinov, O.Mo'minov, A. Hamidov tarjimasi: *“What kinds of shocks await our people, my son!”*

Mark Riz tarjimasi: *“What is the fate of the nation, my son?”*

“Presuppozitsiya asosan gapda muayyan til birliklarining ishorasi vositasida yashirin tarzda yuzaga chiqadi. So'zlovchi obyektiv voqelik haqidagi muayyan axborotni gapda ochiq ifoda etishni xohlamaganda, presuppozitsiyaga yo'l ochiladi”, - deydi Z.Burxanov. Shuningdek, olim “presuppozitsiya gapda sintaktik qurilmalar vositasida namoyon bo'ladi. Bu kabi sintaktik birikmalar to'g'ridan to'g'ri propozitsiyani ham aks ettiradi. Presuppozitsiya orqali anglashiluvchi axborot esa sintaktik qurilmadan anglashilib tursa-da, uning tashqi strukturasi to'liq mos kelmaydi. Bu holat presuppozitsiyaning yashirin ifodalanishi xususida fikr yuritishga asos bo'ladi”, - deb hisoblaydi.⁹

Asliyat matni: *“Shuning ila sizni-da, o'zimni-da Hamid qo'lida o'yin bo'lmog'imizg'a katta yo'l ochqan edim.”*

I.Tuxtasinov, O.Mo'minov, A.Hamidov tarjimasi: *“I have contributed to the fact myself that we both have been victims of Hamid. ”*

Mark Riz tarjimasi: *“Making this mistake put both of us in Hamid's clutches.”*

Presuppozitsiyasi bevosita ifodalanmagan bo'lsa-da, **katta yo'l ochqan edim** sintaktik qurilmasiga yuklangan mazmun, presuppozitsiyani mantiqan kashf etadi. Tarjimonlar tomonidan asliyat matnidagi “yo'l ochmoq” fe'li “to contribute” va

⁸Davlatova R.H.O'zbek tilining deykli birliklari. Filol. fan....dok(DSc) diss.avtoref. – Toshkent, 2020. – B. 12-32.

⁹Burxanov Z. O'zbek tilida ko'makchilar va ularga vazifadosh kelishiklar pragmatikasi (presuppozitsion aspekt): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 2008. – B.13.

“make...to” muqobillari vositasida ifoda etilgan. Tarjima matnlarining har ikkida ham xuddi asliyat matnidan anglashilgandek *Ikkisi ham Homidning qo‘lida o‘yinchoq bo‘ldilar va bunga Otabek sababchi bo‘ldi* axboroti aks etgan.

H. Grays **implikatura**ga birinchilardan bo‘lib matn pragmatikasiga bog‘liq hodisa sifatida qaragan. Uning ta’kidlashicha, matnda xosil bo‘ladigan yashirin ma’no, aslida implikatura hodisasiga qaram bo‘ladi.¹⁰ Chunki muloqot paytida til birliklarining qo‘llanilishi muayyan qoida va tamoyillarga asoslanadi, ba’zan muloqot taqozosidan yoki so‘zlovchi ataylab bu qoidalarga amal qilmasligi mumkin. Muloqot jarayonidagi mana shunday “qoidalarga amal qilmaslik” natijasida Bunday maqsadli “qoida buzilishi” natijasida presuppozitsiya va semantik xulosaga mos kelmaydigan mohiyat hosil bo‘ladi. Masalan:

Asliyat matni: “*Uning bu holi ersa manimuchun yaxshi emas, ul yana ko‘b vaqt bizning oramizda tikan bo‘lmoqchi...*”

I.Tuxtasinov, O. Mo‘minov, A.Hamidov tarjimasi: “*But I don’t like her present state; it seems she is going to stand in our light for long ...*”

Mark Riz tarjimasi: “*Her new manner bodes ill for me. She is going to stand between us for some time.*”

Mazkur matnda Zaynabning tikanga qiyoslanishi orqali implikatura yuzaga kelgan. Ushbu holatda tarjimonlar asliyat matnidagi *tikan bo‘lmoqchi* metaforik birikmasi orqali ifodalangan badiiyat va pragmatik salohiyatni “**stand in-stand between**” tarzida o‘girib ma’lum miqdorda saqlab qolishgan.

Badiiy tarjimaning pragmatik xususiyatlari. Badiiy tarjimaning pragmatik xususiyatlari to‘g‘risida so‘z yuritar ekanmiz, bunda badiiy tarjima matnlarida quyidagi pragmalingvistikaning xususiy masalalari hal qilinishi lozim bo‘ladi:

- **Asliyat matnida aks etgan nutq subyektlarining kommunikativ niyati va uning yashirin yoki oshkora shakllari tarjima matnida qayta ifodalanishi kerak. Chunki nutqning yashirin yoki oshkora ifoda shakllari o‘z-o‘zidan kommunikativ strategiya shakllanishida muhim rol o‘ynaydi;**

¹⁰Grice H. P. Logic and conversation. - Cole, P., and J.L. Morgan: Academic Press, 1975. - P.41-58.

- Pragmalingvistikaning asosiy masalalaridan biri bo‘lmish kommunikativ maqsadni ifodalash strategiyasi nutq egasining ichki maqsadini turli yo‘llar bilan bayon qilish usulidir. Badiiy tarjimada ushbu strategiyani aniq ko‘rsata olish tarjima matnaridagi pragmatik mazmunni ifodalash uchun qo‘yilgan katta qadam bo‘ladi;

- Pragmalingvistikaga oid xususiy masalalardan yana biri – *tag ma’no* tushunchasi hisoblanadi. Badiiy tarjimada mazkur tushunchaning implikatura yohud presuppozitsiya hodisalaridan farqli, o‘z xususiyatlariga ko‘ra qayta ifodalash tarjimada pragmatik mahoratni aks ettirishning dolzarb masalalaridan biridir;

- Nutq subyektlarining obyektiv olamni his qilishi, u haqidagi bilimlari ma’lumotni yetkazish va qabul qilishda ahamiyatli hisoblanadi;

- Kontekstda namoyon bo‘lgan pragmatik hodisa va vaziyatlar, nutq ishtirokchilarining ataylab muloqot qoidalarini chetlab o‘tishi, shuningdek, perlokutiv aktning tinglovchiga ta’sir o‘tkazishi kabi unsurlarning tarjima matniga o‘tkazilishi;

- Dialog, suhbat, bahs, munozara kabi muloqotdagi nutqiy aralashuv shakllari, ulardagi ijtimoiy-etiket vositalari, kommunikanrlarning bir-biriga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi nutqiy akt ko‘rinishlarini asliyatga monand tarjima tiliga o‘tkazilishi;

- Muloqot jarayoni bilan bog‘liq holda deytik vositalarni badiiy tajimada aks ettirish kabilar badiiy tarjima matnlarida ifodalanishi lozim bo‘lgan masalalar hisoblanadi.

Pragmatikaning tarjimaga bog‘liqligi to‘laqonliva mukammal tarjima yaratishga harakat qilishda o‘z aksini topadi. Ba’zan ikki tildagi ekstralinglistik vositalarga yuklangan axborot bir-biriga zid kelishi mumkin, chunki tarjima ko‘rinishidagi asarni mutolaa qilayotgan kitobxon va asliyat tilidagi so‘zlashuvchilarning “bilim jihatidan kelib chiqishi” (background knowledge)ning o‘zaro farqlanishi tabiiy holat bo‘lishi mumkin. “Natijada esa asliyat tilida

so‘zlashuvchi kishilarga tushunarli bo‘lgan tushuncha tarjima tilida so‘zlashuvchi kishilarga tushunarsizroq yoki aksincha umuman tushunarsiz bo‘lishi mumkin.”¹¹

NAZORAT SAVOLLARI:

5. Tarjimaning pragmatik xususiyati deganda nimani tushunasiz?
6. Pragmatik mazmun va uning mohiyati nimadan iborat?
7. Pragmatik tahlil usullari nimalardan iborat?
8. Badiiy tarjimada implisit ma’no nima?

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR:

1. Galperin I.R. Stylistics. –M.: Высшая школа, 1981. – P.187.
2. Musaev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – T.: Fan, 2005. – 352 b.
3. Rahimov G’. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 176 b.
4. Yo‘ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvostilistik va lingvokulturologik xususiyatlari. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
5. Sharipova F. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi xatlar (yozishmalar) tarjimasining pragmatik tahlili. Fil.fan.dok. dissertatsiya. –Termiz:2022. –155 b.
6. Yo‘ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.
7. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.
8. Norton G.P. Some remarks on translation and translators. – Oxford: Oxford University Press, 1984. – 216 p.
1. Monografiya. Samarqand: – “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.
2. Sharipova F. Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanidagi xatlar (yozishmalar) tarjimasining pragmatik tahlili. Fil.fan.dok. dissertatsiya. –Termiz:2022.

¹¹Bozorov Z. M. Badiiy tarjimada leksik-stilistik bo‘yoqdorlikni saqlash muammolari. Filol.fan.nomz (PhD) ...diss. –Samarqand, 2020. – B.86-93.

–155 b.

3. Yo'ldoshev U. Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma. – Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.

4. Newmark P. About Translation: Multilingual Matters. Clevedon, Philadelphia, – Adelaide: Multilingual Matters Ltd, 1991. – 184 p.

III. AMALIY MASHG'ULOT

1-MAVZU. TARJIMANING FONETIK, SINTAKTIK TAHLILI ASOSLARI

1-topshiriq. Quyidagi aslyat matn va uning ingliz tiliga uch xil tarjima variantlarini tahlil qiling va ulardagi fonetik birliklar va ularni tarjimasida qo'llangan fonetik transformatsiyalarni aniqlang.

Aslyat matni:

Otabek o'zi bilan ko'rishgan mundaki ikki yot kishini tanimaganliqdan bir-ikki qayta ularni ko'z ostidan kechirdi. Buni payqag'an Ziyο shohichi Otabekka tanitdi:

— Amakilaringizni siz tanimag'andirsiz albatta, — dedi. — Bu kishi otangizning yaqin do'stlaridan Mirzakarim qutidor. Bu zot Andijon savdog'arlaridan Akram hoji. Mirzakarim ismlik qirq besh-elli yoshlar chamasida qora qosh, qora ko'z, ko'rkam yuz, yaxshig'ina kiyingan bir kishi bo'lib, Akram hoji elli besh yoshlar orasidag'i bir keksa edi.

Otabek qaytadan Mirzakarim qutidorni ko'zdan kechirdi.

— Ota qadrdonlari bilan tanishdirg'aningiz uchun rahmat, amak, — dedi va Akram hoji bilan Mirzakarim akaga tavozu'landi. — Otam sizlardek yaqin do'stlariga salom aytishni menga amonat topshirg'an edilar.

— Rahmat, sog' bo'lsinlar.

Majlis Ziyο shohichining uyida Otabekning meh-mondorchilig'i uchun yig'ilg'an, yuqorida ismlari o'tkan zotlardan boshqa Homid, Rahmat ham Hasanali bor edilar. Tanishdirishdan so'ng Otabek bilan qutidorning ko'zlari bir-birlariga tez-tez uchrasha boshladilar. Qutidor nimanidir Otabekdan so'ramoqqa og'zini jo'plab tursa ham Akram hoji bilan Ziyο shohichining allanarsa to'g'risidag'i gaplari keti uzilmay davom etar edi.

I.To'xtasinov varianti:

Otabek once or twice looked at the two strangers because it was not in his custom to shake hands with strange people.

Ziyο Shohichi, keeping in mind the custom, introduced them to Otabek:

— “Don't you know these men? They are the closest friends of your father, Mirzakarim *Qutidor*. And this nobleman is a merchant of Andijan – Akram Khoji.”

A man named Mirzakarim was a black-browed, blackeyed, handsome and well-dressed man about forty-five to fifty. Akramkhoji was a man of about fifty five years old. Otabek glanced again at Mirzakarim Qutidor.

– “I am very pleased to meet close friends of my father, thank you”, – Otabek said. He showed favor to Akram Khoji and Mirzakarim Qutidor, and politely continued, – “My father entrusted me to convey his warm regards to his close friends like you.”

– “Thank you. May God grant him good health!” The party was organized in honor of Otabek. There were other guests, besides those mentioned above – Homid, Rakhmat and Hasanali at the party. After getting acquainted with the guests, Otabek and Qutidor’s eyes met now and then. Though Qutidor was eager to ask Otabek something, Akram Khoji and Ziyohichikhi never stopped talking.

K.Ermakova varianti:

Atabek greeted the strangers in Ziya-shakhichikhi’s home, eyeing them carefully as he did so. Noticing this, his host set about introducing those present:

“Are you not acquainted with these gentlemen? This is a close friend of your father, Mirzakarim-Kutidor, and this is the merchant Akram-hadji from Andizhan.”

With his black beard and black eyes, Mirzakarim cut a dashing figure. Lavishly dressed, he looked to be around forty-five to fifty years old. Akram-hadji, on the other hand, seemed about ten years older. Atabek examined Mirzakarim-Kutidor carefully once again.

“I am delighted to meet dear friends of my father, thank you, aka.” And, turning to Akram-hadji and Mirzakarim, he went on respectfully: “My father bade me pass his warm regards to his close friends, such as yourselves.”

“Thank you, and may Allah bless you!”

As well as these gentlemen, the company who had gathered for the feast in honour of Atabek included Hamid, Rakhmat and Khasanali. The formal introductions over, Atabek and Kutidor often caught each other’s eye. But no sooner did Kutidor open his

mouth to ask Otabek something than Akram-hadji and Ziya-shakhichi would strike up some long-winded dialogue.

Mark Riz varianti:

Otabek's eyes passed again and again over the two strangers greeting him — clearly showing wariness about their intentions ... Ziya Shohichi noticed his apprehension and introduced them to Otabek: "Naturally, you are unacquainted with these gentlemen," he said. "Let me introduce one of your father's closest friends, Mirza Karim Qutidor, as well as Akram Hajji, a merchant from Andijon. Mirza Karim Qutidor appeared to be about forty-five years old, with strong brows and dark eyes; he was well dressed and had a handsome face. Akram Hajji was roughly fifty-five years of age.

Otabek again regarded Mirza Karim. "Thank you for introducing me to my father's closest friend," he said, showing his deference toward Mirza Karim and Akram Hajji.

"My father also entrusted me with paying his compliments to his dearest friend..."

"Thank you, we wish you health and very much appreciate your greetings," they replied.

Ziya Shohichi's household was hosting the party. Those attending were Hamid, Rahmat, and Hasan Ali, as well as the individuals just introduced — and all were assembled in Otabek's honor. After their introduction, Otabek's and Qutidor's eyes met. Qutidor attempted to ask Otabek something, but Akram Hajji and Ziya Shohichi continued to ramble, cutting him off.

2-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qiling. Matnda ot so'z turkumi vazifasida qo'llangan so'zlar tarjimasiga, ularning transpozitsiya hodisasiga uchrashiga e'tibor qarating.

Asliyat matni:

Do'konlar yopiq bo'lsalar ham choyxonalar ochiq, kishilar o'rta gulxan solib, choyxonachining bachchasini gohi o'zlariga xon ko'tarib va gohi «xon qizi» deb ham qo'yadirlar. Xon saylag'uchilar orasida yosh yigitlar bor bo'lg'anidek, katta sallalik mullanamolar, yetmish yoshliq keksalar ham ko'rinadirlar... Qish kechalari juda uzun,

shuning uchun choyxonalar obod; xalq lazzatlanib bachchaning tabarruklangan choyini ichadir, husniga tamosho qilib xudoning qudratiga hayron qoladilar...

I.To'xtasinov varianti:

The shops were already closed, but tea houses were crowded at this time. In the center of fires, visitors were entertaining with their game *Bachcha* in the tea house sometimes raising somebody as their khan, then sometimes they dubbed him Khan's lady.

Among the "voters" for Khan, there were young people and there were *mullahs* with large turbans on their heads, and the seventy-year aged adult people visiting the tea house. Winter nights were very long, and, therefore, tea houses were always crowded; people relished having tea in the tea houses.

K.Ermakova varianti:

Although the shops were already closed, the chaikhanas were crowded. Fires burned in the teahouses, the customers were enjoying themselves, elevating the chaikhana bacha to the status of khans or suggesting they impersonate the khan's daughter. Revelling in the game choose a khan,' the electoral body' included youngsters, mullahs with sizeable turbans on their heads, old men in their seventies...

Winter evenings drag on, the chaikhanas are always full; relishing the tea prepared by the bacha, the men admire their beauty and give praise to Allah.

M.Riz variant:

Though stores were closed for the day, teahouses hummed at capacity. Men stoked the flames in the central hearths, kindling fires, while others coerced bachas into lascivious roles, posing for the patrons as their very own khans or khans daughter. Among those who favored khans were young mullahnamos, who were scattered among the customers in grandiose turbans, as well as men in their seventies.

Long winter nights make for crowded teahouses.

There were customers seeking pleasure by drinking tea tenderly prepared by bachas, all the while reveling in their beauty and praising Allah I name and omnipotence for

creating these delicate chimeras that for just a moment cast aside the ruse to reveal not the face of a woman but that of a young boy.

2-MAVZU. TARJIMANING LEKSIK, STILISTIK TAHLILI ASOSLARI

1-topshiriq. Asliyat matn va uning uchta tarjima variantini qiyosiy solishtiring. Asliyat matnida qo'llangan leksik birliklarni tarjima matnidagi muqobillik ifodasini tahrir qiling.

Asliyat matni:

Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim.

I.To'xtasinov varianti:

On both sides of the hearth are two women: one of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face - a woman of about thirty-five, dressed in a satin dress, a short quilted padded jacket, her head draped with a white kerchief, a qutidor's wife – Oftoboyim.

K.Ermakova varianti:

Two women are seated either side of the sandal. One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress, a short, quilted, sleeveless felt jacket, with a white scarf thrown over her head. A shapely woman, her small face, open and friendly, radiates devotion to her husband. This is Oftobayim, Kutidor's wife.

M.Riz variant:

On either side of the sandal, a woman reposes. One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe. Over these items hangs a loose white silk scarf. She is about thirty-five, beautiful, and slim. She has a face that personifies kindness as well as modest deference to her husband, without any sign of artifice. She is Qutidors wife—Oftob Oyim.

2-topshiriq. Quyidagi matnni o'qing. Asliyat matnida qo'llangan sintaktir birliklarni inversiya, so'z qo'shish, so'z tushirib qoldirish, transpozitsiyalar, boshqa

so'zlar bilan ifodalash, kengaytirish, so'z tarkibini o'zgartirish, antonimik tarjima kabi sintaktik usullarni qo'llanishiga etibor bering.

Asliyat matni:

Qutidorning tashqarisig'a er mehmonlar, ichkarisiga xotin mehmonlar to'lg'anlar, ular quyuq, suyuq oshlar, holva, nisholdalar bilan izzatlanadirlar. Tashqarida bir qo'sha sozandalar dutor, tanbur, g'ijjak, rubob, nay va amsoli sozlar bilan dunyoga jon suvi sepib shaharning mashhur hofizlari ashula aytadirlar. To'y juda ham ruhlik...

Ichkarida xotinlar majlisi: onalarcha aytkanda, ular qum-tuproqdek ko'b, biroq majlisning borishida tartib yo'q, havli yuzi va uylar xotinlar bilan to'lg'an, qaysi havli yuzida bir tovoq oshni yeb o'lturadir, kim yig'lag'an bolasini ovitish bilan ovora, birav yor-yor o'qub, tag'in bittasining quvonchi ichiga sig'may xaxolab dunyoni buzadi, xullas bag'-bug' yetti qat ko'kdan oshadir...

I.To'xtasinov varianti:

The guests in Qutidor's house were well respected people, treated with first and second courses of many kinds of foods and sweets like *khalva* and *nisholda*. The outside area of the house was full of male guests, and inside of the house was occupied by women and girls. Several musicians outside of the house made the wedding exciting with their musical instruments; *dutor*, tambour, *gijjak*, rubab, tube, bugle and the famous singers sang songs. The wedding was very exhilarating...

Inside the house the women and girls' party, according to mothers' view, with so many guests "like sands" filled the area but the party from the beginning was in confusion.

The yard of the house full of women, some of them sat in the yard eating *pilaf* from big dishes, one trying to stop her crying baby, someone reciting a wedding song and others were overwhelmed with the thrilling wedding party, all these made terrible noise.

K.Ermakova varianti:

The male half of the courtyard is full of men, the women's quarters are packed with women, they are being feted with a vast array of dishes and delicacies, wondrous halva and nishalda. The courtyard rings with music, the continuous melodies of so many folk

instruments, bright as the dawn chorus. The town's best singers caress the guests' ears, watering this world with the living spring of their songs. The banquet is at its height...

It is no less noisy or festive in the *ichkari*, where the women are feasting. Just as the saying goes: "Today there are as many as there are grains of sand in the desert". Here, however, chaos reigns. Both the courtyard and the rooms are full to bursting. Some of the women, having ensconced themselves in the courtyard itself, are eating pilaf, halva and all manner of other delicacies. Others are cradling wailing babies, still others are singing the wedding song, raucously calling "yar-yar!" while some, unable to restrain themselves, are laughing at the tops of their voices; in short, the clamour rises almost to the heavens.

M.Riz varianti:

The male guests were celebrating in the male half of the outer courtyard of Qutidors house while the female guests filled the Ich Kari. Honored with a lavish meal of *suyuq osh* and rich halva and fresh nishaldah, all were shown every courtesy.

The constant interplay of instruments resonated from the outer yard; the *dutarsy tamburs*, *rababs*, and *nayss* were accompanied by the most renowned singers of the city; they watered the world around them with the ever-flowing spring of their songs, caressing the ears of the guests.

The wedding brimmed with joyous spirits, reaching a crescendo ...

In the Ich Kari, where the women were making merry, a clamor of revelry and a racket commingled: we were to use a mother's witticism we'd say "There are more guests than sand in the desert; therefore, disorder reigns," Wives crowded all the rooms and the entire Ich Kari. Some were eating cups of plov, halva, and other delicacies right in the yard. Someone else was busy calming crying children, attempting to put them to sleep. Other women were singing a wedding song and yelling "Yor-yor!" at the top of their lungs, while yet others laughed raucously, ruining the tranquility of the world. The tumult reached to the seventh heaven.

3-MAVZU. TARJIMANING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI ASOSLARI

4-vazifa. Quyidagi asliyat matn va uning uchta tildagi tarjima variantlarini o'qing va unda qo'llangan lingvokulturologik birliklarni aniqlang. Matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga *funksional ekvivalentlik*, *madaniy ekvivalentlik*, *kalkalash*, *so'z o'zlashtirish*, *tafsillash* transformatsiyalaridan foydalanib tarjima qiling.

Asliyat matni:

Uy jihozga g'oyatda boy, go'yo muzaxona tusini berar edi. Taxmonda turlik rangda atlas va shohilardan qoplang'an ko'rpalar, taxmon toqchalarig'a uyilgan par yostiqlar, qator-qator xitoyi jononlar: kosalar, ko'zalar, chinni choydishlar, laganlar, kumush qinlik xanjar va qilichlar, qalqon va siparlar, dorga soling'an turlik-turlik er va xotin kiyimlari: po'stin, chakmon va boshqalar, qip-qizil gilam va shohi ko'rpachalar kishi ko'zini qamashdirar darajada edilar.

I.To'xtasinov varianti:

The room they entered was decorated extremely rich and was more like a museum. In niches there were piled silk and satin blankets of various colors, on the shelves there were folded up down pillows, exquisite Chinese dishes stood in rows: patterned cups of fine china, pitchers, teapots, dishes, walls were hung with shield and helmets, daggers and swords in scabbard, decorated with silver. Here on poles hung various men's and women's clothing: light gown, *chakmon* and others. Absolutely red carpets and handmade silk blankets blind everybody's eyes. He glanced at Oftoboyim who was looking forward to hear something from her husband.

K.Ermakova variant:

The room they entered was furnished so lavishly it resembled a museum. Mountains of silk and atlas blankets of all possible hues towered in the niches, dainty Chinese crockery graced the shelves: rows of ornamented fine china cups, jugs, teapots, and dishes nestling amidst a mound of fluffy pillows. The walls were festooned with shields and helmets, daggers and sabres stowed in scabbards wrought in silver. Various garments

hung on poles: fur coats for men and women, chekmen overcoats and many more besides. Like woven works of art, the bright red rugs seemed to dance and dazzle the eyes.

Oftobayim waited impatiently to hear what her husband had to say.

M.Riz varianti:

The room, lavishly decorated, was fit for a museum. There was an array of richly colored silks and atlas-covered blankets stored in recessed shelves along with piles of feather pillows; there were rows of fine Chinese tableware, ornate cups of delicate porcelain, as well as teapots, plates, and pitchers; and the walls were covered with swords, shields, helmets, daggers, and sabers in silver filigreed sheaths. An assortment of men and women's clothing, draped or folded, lined the walls; there were *chokmon* coats and travel robes as well as vibrant red carpets and silk blankets. One's eyes were dazzled by the display of wealth.

Qutidor smiled at Oftob Oyim, who waited eagerly for his words.

5-vazifa. Quyidagi matnni o'qing va uning tarjima matndagi lingvokulturologik birliklarning o'zaro muvofiqligini aniqlang.

Asliyat matni:

Nihoyat, soat besh yarimlarda kuyav keldi. Yigirma-o'ttiz chog'liq yosh yigitlar — Rahmatning o'rtoqlari, ular orasida Otabek — kuyav ko'rindi: boshida simobi shohi salla, ustidan qora movut sirilgan sovsar po'stin, ichida o'zining Shamayda tiktirgani osmoni rang movut kamzul, movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'...

I.To'xtasinov variant:

At last, at about half past five, Atabek the bridegroom appeared, accompanied by about twenty or thirty young men, friends of Rakhmat. He was dressed magnificently: a shimmering silk turban on his head, a marten fur coat lined with black woollen cloth on his shoulders, with a blue woollen camisole underneath, tailored in Shamay to his own design. He also wore woollen trousers. His feet were shod in city boots, and around his waist was a gift, a silk cummerbund skilfully embroidered by Kumush...

K.Ermakova variant:

At last, at about half past five, Atabek the bridegroom appeared, accompanied by about twenty or thirty young men, friends of Rakhmat. He was dressed magnificently: a shimmering silk turban on his head, a marten fur coat lined with black woollen cloth on his shoulders, with a blue woollen camisole underneath, tailored in Shamay to his own design. He also wore woollen trousers. His feet were shod in city boots, and around his waist was a gift, a silk cummerbund skilfully embroidered by Kumush...

M.Riz varianti:

At last, the groom came at five thirty with about twenty or thirty young men – Rahmat's friends, among them the groom – Otabek with a silver silk turban on his head, black fur coat, his own light blue vest which he had sewn in Shamai, broadcloth pants, leather shoes; he had on his abdomen a wide silk belt (kerchief) which had been embroidered and sewn by Kumush herself...

4-MAVZU: TARJIMANING PRAGMALINGVISTIK TAHLILI ASOSLARI

1-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tilidan ingliz tiliga pragmalingvistik tahlil qiling. Matndagi metafora ishtirok etgan gaplarni quyidagi metaforani tarjima qilish strategiyalardan foydalanib tarjima qilinganligiga e'tibor qaring:

a) metaforani xuddi shunday metaforaga aylantirish;

b) tarjima jarayonida asliyat tilidagi ifodani tarjima tili madaniyatiga mos standart ifoda bilan almashtirish;

v) matn mazmunidan foydalangan holda xuddi shunday metafora yaratish;

g) metafora ma'nosini tarjima tilida aks ettirish.

Asliyat matni:

Shu chorxari ayvonning o'rta bir yerida, ustiga atlas ko'rpalar yopilg'an tanchaning to'rida devorga suyanib, avrasiga qora movut sirilgan sovsar po'stin kiyib bir kishi o'lturadir. Bu kishi bilan ikkinchi martaba tanishib o'lturmaymiz, chunki, bu odam o'qug'uchi bilan tanishqan — Mirzakarim qutidor. Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppy kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xush bichim bir xotin. Yuzidan muloyimlik, eriga itoat, to'g'riliq ma'nolari tomib turg'an bu xotin qutidorning rafiqasi — Oftob oyim, ikkinchisi yetmishlardan o'tkan bir kampir. Oftob oyimning onasi — Oysha bibi.

I.To'xtasinov varianti:

In the center of veranda, at the end of the covered satin coverlet of sandalwood, leaning against the wall, a man sitting on a wearing marten fur, lined with black cloth. We will not again present him to the reader, he is already familiar – he is Mirzakarim-Qutidor. On both sides of the hearth are two women: one of them – stately, beautiful, open, friendly and gentle, with an expressive of absolute obedience to her husband face - a woman of about thirty-five, dressed in a satin dress, a short quilted padded jacket, her head draped with a white kerchief, a qutidor's wife – Oftoboyim. The second one – an old woman of about seventy years was named Oyishabibi, her mother.

K.Ermakova varianti:

In the middle of the ayvan, seated at the end of the sandal festooned with atlas covers, a man clad in a marten fur coat lined with black felt is leaning back against the wall. We

shall not repeat our introductions for the reader already knows him - this is Mirzakarim-Kutidor. Two women are seated either side of the sandal. One of them is a woman of thirty-five clad in an atlas silk dress, a short, quilted, sleeveless felt jacket, with a white scarf thrown over her head. A shapely woman, her small face, open and friendly, radiates devotion to her husband. This is Oftobayim, Kutidor's wife. The second woman is an old lady of around seventy, her mother, Aisha-bibi.

M.Riz varianti:

In the middle of the pillared veranda sits a man on a raised platform in the place of honor facing the door, wearing an otter jacket lined with black velvet. He sits before a sandal covered with multicolored atlas blankets. A second introduction for this person is unnecessary, because this man is already familiar to the reader as Mirza Karim Qutidor. On either side of the sandal, a woman reposes. One is wearing a long dress of khan atlas inside a sleeveless silk robe. Over these items hangs a loose white silk scarf. She is about thirty-five, beautiful, and slim. She has a face that personifies kindness as well as modest deference to her husband, without any sign of artifice. She is Qutidor's wife—Oftob Oyim. As for the second woman, she is an elderly lady of about seventy years, the mother of Oftob Oyim—Oysha Bibi.

V. GLOSSARIY

V. GLOSSARIY

O'zbekcha-inglizcha

1. Ekstralingvistik – Extralinguistic
2. Tarjimon – Translator
3. Gid – Guide
4. Muloqot – Communication
5. Madaniyat – Culture
6. Madaniy farqlar – Cultural differences
7. Kontekst – Context
8. Tilga bog'liq bo'lmagan – Non-linguistic
9. Madaniyatlararo – Cross-cultural
10. Tushunmovchilik – Misunderstanding
11. Mehmon – Guest
12. Aloqa – Interaction
13. Imo-ishora – Gesture
14. Intonatsiya – Intonation
15. Ohang – Tone
16. Madaniy qadriyatlar – Cultural values
17. Nozik masala – Sensitive issue
18. Hazil – Joke
19. Til bilimi – Language knowledge
20. Tajriba – Experience
21. Madaniy ko'nikmalar – Cultural skills
22. Til fonetikasi – Phonetics of the language
23. Grammatika – Grammar
24. Lug'at – Vocabulary
25. Noan'anaviy odatlar – Unconventional traditions
26. Samara – Efficiency
27. Yordam – Assistance

- 28. Mehmonlarning qoniqishi – Guest satisfaction**
- 29. Tushuntirish – Explanation**
- 30. Aniq tarjima – Accurate translation**
- 31. Madaniy tushuncha – Cultural understanding**
- 32. Muloqot uslubi – Communication style**
- 33. Madaniy moslashuv – Cultural adaptation**
- 34. Tushunarli aloqa – Clear communication**
- 35. Xulq-atvor – Behavior**
- 36. Qoidalar – Rules**
- 37. Rasmiy ekskursiya – Official tour**
- 38. Matn – Text**
- 39. Tarjima jarayoni – Translation process**
- 40. Savol-javob – Question-answer**

NAZORAT SAVOLLARI

- 1-asliyat tilidagi ohang tarjima tilida qayta yaratiladi
- 2 Transliteratsiya va transkripsiya tilning qaysi sathiga doir tarjima muammolariga yechim topadi?
- 3 Atoqli otlar va geografik nomlar asosan qaysi tarjima usullari yordamida tarjima qilinadi?
- 4 O'zbek tili genetik jihatdan qaysi til oilasiga kiradi?
- 5 O'zbek lingvomadaniyatida umr nima sifatida tasavvur qilinadi?
- 6 O'zbek lingvomadaniyatida nima dengiz sifatida tasavvur qilinadi?
- 7 Ingliz tili genetik jihatdan qaysi til oilasiga kiradi?
- 8 O'zbek tili genetik jihatdan qaysi til guruhiga kiradi?
- 9 asliyat matnidagi she'riy ma'no va mazmun qayta yaratiladi.
- 10 O'zbekistinda tarjima nazariyasining asoschisi ko'rsatilgan to'g'ri javobni toping.
- 11 Polisemantik so'zlar tarjimaning qaysi aspektiga aloqador?
- 12 Ingliz tilida o'zbek tiliga nisbatan ko'proq qo'llanish xususiyatiga ega.
- 13 Tarjimon asliyatning mazmunini o'z so'zlari bilan sodda va qisqa hikoya qilib beradi
- 14 Tarjimada so'z turkumining o'z pozitsiyasini o'zgartirishi qaysi tarjima usulida sodir bo'ladi?
- 15 Asliyat tilidagi madaniy so'zni tarjima tilidagi madaniy so'z bilan almashtirish _____ deyiladi.
- 16 Tarjima fonema, morfema, leksema, so'z, so'z birikmasi va gaplarni joylashish tartibi qaysi metod orqali tahlil qilinadi?
- 17 Tarjimada gapdagi so'z yoki so'z birikmasining joylashish tartibini o'zgartirish _____ usuli orqali tarjima qilinadi

- 18 Asliyat tilidagi so'zni uning grafik shakliga ko'ra tarjima tiliga olib o'tish _____ deyiladi.
- 19 Asliyat tilidagi so'zni uning talaffuz shakliga ko'ra tarjima tiliga olib o'tish _____ deyiladi.
- 20 Asliyat matni tilidagi grammatik va semantik komponentlarning shaklan ifodalanmaslik holatlari qaysi tarjima usuli qo'llanganda sodir bo'ladi?
- 21 Tarjimada ifodani kamroq leksik birliklar bilan ifodalash _____ usuli orqali amalga oshiriladi.
- 22 _____ tarjima tili leksikasida so'z asliyat tili leksikasidagi bir xil vazifani bajaruvchi matn uslubiga mos keladigan so'z bilan almashtiriladi.
- 23 Leksik usullar ko'rsatilgan qatorni toping.
- 24 Madaniy ekvivalenlik, funksional ekvivalentlik, perefraz qanday leksik birliklar tarjimasida keng qo'llanadi?
- 25 Tarjima jarayonida tarjimon ikki va undan ortiq turli usullardan bir paytda foydalanishi nima deb aytiladi?
- 26 Qanday sabablarga ko'ra, ikki tilning madaniy farqlari bilan bog'langan leksik, grammatik, stilistik, pragmatik va shu kabi boshqa tarjima transformatsiyalarga ehtiyoj seziladi?
- 27 Asliyat va tarjima tillaridagi strukturadagi farqlarga nimalar kiradi?
- 28 "Badanlarim muzlab ketdi" gapidagi "-lar"ning ma'nosini aniqlang.
- 29 "Dadamlar biznikiga keldi" gapidagi "-lar"ning ma'nosini aniqlang.
- 30 Asliyatdagi keng ma'noli so'z yoki so'z birikmasini tarjima matnida ancha konkret mazmunga ega so'z bilan almashtirish
- 31 Asliyatdagi tor ma'noli so'zni tarjima tilidagi keng, umumlashtiruvchi so'z bilan almashtirish _____ usuli orqali amalga oshiriladi.
- 32 "Pulimni yerlarda yo'qotdim" gapidagi "-lar"ning ma'nosini aniqlang,

- 33 "Halima, Adiba va Gulchehralar kelishdi" gapidagi "-lar" ning ma'nosini aniqlang.
- 34tarjima jarayonida so'zning lug'aviy ma'nosini unga mantiqan bog'liq kontekstual ma'nosiga almashtirishni nazarda tutadi.
- 35 oddiy badiiy so'zla, atamalar va maxsus so'zlar, she'riy so'zlar, arxaik so'zlar, barbarizm va begona so'zlar, badiiy neologizmlardan iborat.
- 36ga esa shevaga xos so'zlar, jargonizmlar, kasbga oid so'zlar, dialekt so'zlar, qo'pol so'zlar, og'zaki neologizmlar kiradi.
- 42 Tilda mavjud bo'lgan fonema, morfema, so'z, so'z birikmasi hamda gapning asosini tashkil etishi lozim
- 43 O'zbek tilidan ingliz tiliga yoki aksincha tarjimada qanday lisoniy g'alizliklar yuzaga keladi
- 44 Genetik jihatdan o'zbek tili qaysi tillar guruhiga kiradi?
- 47 Morfologik tasnifga ko'ra, o'zbek tili qanday tillar guruhiga kiradi
- 48 Fonetik g'alizliklarni bartaraf etishda qaysi holat muammoga sabab bo'ladi?
- 51 Qaysi xolat fonetik transformatsiya deb ataladi?
- 53 Tarjima jarayonida nima bilan bog'liq bo'lgan lisoniy g'alizliklar ko'proq uchraydi?
- 54 Tarjima jarayonida fe'llar qaysi tilda ko'proq qo'llanadi?
- 55 O'zbek tilida qanday so'zlar ko'proq ishlatiladi?
- 56 Grammatik transformatsiyalar qanday sabablar bilan bog'liq?
- 57 Subyektiv sabablardan qaysi biri grammatik transformatsiyaga olib kelishi mumkin?
- 58 Tarjimada ikkita asosiy grammatik almashtirish turi qanday nomlanadi?
- 59 Quyidagi qaysi kategoriya grammatik kategoriyalardan biri hisoblanadi?

- 61 Tarjimada qaysi usul grammatik qiyinchiliklarni bartaraf etishda qo'llaniladi?
- 62 Qaysi usul tarjimada antonimik tarjimaga to'g'ri keladi?
- 63 Tarjimada adekvatlikka erishishning qaysi yo'li mavjud?
- 65 Leksik transformatsiyalar nechta guruhga ajratiladi
- 66 Leksik transformatsiyalardan biri bo'lgan ma'noni umumlashtirish nimani anglatadi?
- 67 Tarjima jarayonida antonimik tarjima nima bilan bog'liq?
- 68 Tarjimada ma'noni rivojlantirish qaysi jarayonni anglatadi?
- 69 Ma'noni bir butun qilib o'zgartirish qanday tarjima transformatsiyasidir?
- 70 Kompensatsiya tarjima jarayonida qachon qo'llanadi?
- 71 Tarjima jarayonida leksik muammolarni bartaraf etishning qaysi usuli mavjud?
- 72 Leksik transformatsiyalardan qaysi biri kontekstual ma'noning rivojlanishi bilan bog'liq?
- 73 Badiiy tarjima jarayonida tarjimon nimalarga jiddiy e'tibor qaratishi lozim?
- 74 Fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya va sintaksis qaysi imkoniyatlar bilan bog'liq?
- 75 Fonostilistika nimani o'rganadi?
- 76 Fonostilistikada prosodik belgilar qaysi jihatlar bilan bog'liq?
- 77 Leksik stilistika qaysi masalani o'rganadi?
- 78 Ingliz tilidagi lug'at tarkibi uslub nuqtai nazaridan nechta guruhga bo'linadi?
- 79 Badiiy qatlamga qaysi so'zlar kiradi?
- 81 Badiiy matnda stilistik vositalarning qo'llanishi qaysi uslublarga ta'sir qiladi?
- 82 So'z yasash stilistikasi qaysi jarayonlar bilan bog'liq?

- 83 Ekstralingvistik bilimlar zahirasi nimalar bilan bog'liq?
- 84 Tarjimonning ekstralingvistik bilimlarga ega bo'lmasligi natijasida nima yuz berishi mumkin?
- 85 Tilda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladigan qaysi ma'lumotlar keltirilgan?
- 86 Matn tahlilining qaysi sohalari tarjimaning mazmuni, ifodaliligi va milliy koloritni saqlashida yordam beradi
- 87 Tarjimada milliy koloritning saqlanishi nimaga bog'liq?
- 88 Lingvokulturologiya qaysi fan bilan bog'liq?
- 89 Tarjima adekvatligini belgilashda qaysi fan yutuqlari yordam beradi?
- 90 Tarjimada mazmun, ifodalilik va milliy koloritni saqlashda qaysi uslub muhim?
- 91 Tarjima nazariyasiga hissasini qo'shadigan narsa nima?
- 92 Tarjimaga kompleks yondashmaslik nimani anglatadi?
- 93 Lingvokulturologiya qaysi fanlarning qo'shilishi natijasida yuzaga kelgan?
- 96 Lingvokulturologiyaning qaysi yo'nalishi xalqlar madaniyatini qiyosiy o'rganadi?
- 97 Diaxronik lingvokulturologiya nimani o'rganadi?
- 98 Lingvokulturologik leksikografiya qaysi faoliyat bilan shug'ullanadi?
- 99 Lingvokulturologiyaning tadqiqot ob'yekti sifatida qaysi element ko'rib chiqiladi?
- 100 Muqobilsiz leksika qanday so'zlarni o'z ichiga oladi?

VII. ADABIYOTLAR RO'YXATI

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston Strategiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2021.- 457 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida” Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 12-iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” PF-4732-sonli Farmoni.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 27-avgustdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida” PF-5789-sonli Farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentabrdagi “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 797-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5847- sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-6097-sonli Farmoni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60-son Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-14-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida” PF-158-son Farmoni.

III. Maxsus adabiyotlar:

1. Tuxtasinov I, Yo‘ldoshev U. Badiiy tarjimani o‘qitishning lingvistik va metodik asoslari. –Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2023. – 174 bet.

2. Yo‘ldoshev U. Badiiy tarjimaning lingvistilistik va leingvokulturologik xususiyatlari. –Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2022. – 170 bet.

3. Yo‘ldoshev U. Tarjima nazariyasi. –Samarqand: “Samarqand davlat chet tillar instituti” nashriyoti, 2021. – 126 bet.

4. G‘ofurov I, Mo‘minov O, Qambarov N. Tarjima nazariyasi. –T.: Tafakkur-Bo‘ston, 2012. – 216 b.

5. Rahimov G‘. Tarjima nazariyasi va amaliyoti. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2016. – 132 b.

6. Yuliasri I, Allen P. Foreignizing and domesticating Harry: An analysis of the Indonesian translation of Harry Potter and the Sorcerer’s Stone. T & I Review, Seoul, Korea: EWha Research Institute for Translation Studies, 2014.

7. Nida E. Towards a science of translation, with special reference to principles and procedures involved in Bible translating. – Leiden: Brill, 1964. – pp. 241-247.

8. Mona Baker. In other words: a course book on translation/Mona Baker.-(2nd ed).
331 p.

III. Internet saytlar

<http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

<http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi

<http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi

<http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali Ziyonet

<http://www.translatorsbase.com> - Tarjimon saytlar

<http://www.freetranslation.com> - Tarjimon saytlar

<http://www.tranexp.com> -Tarjimon saytlar

<http://www.systransoft.com>- Tarjimon saytlar

<http://www.systranet.com> -Tarjimon saytlar

